

**TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA
ILMIY-METODIK MARKAZI**



YOSH OLIMLAR VA TADQIQOTCHILAR MAKTABI

**MAVZU: ILMIY TADQIQOT ISHINING TARKIBIY TUZILISHI (KIRISH,
NAZARIY QISM, METODOLOGIYA, TAHLIL, XULOSA) VA TAHLILI**

MUALLIF: Sh.K. Kurbaniyazov

TOSHKENT – 2025

DISSERTATSIYA ISHLARINI RASBIYLASHTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar
Mahkamasi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi Rayosatining
2017-yil 31-maydagi 239/4-son
qarori bilan tasdiqlangan

**Ilmiy darajalar berish tartibi
to'g'risida NIZOM**



DISSERTATSIYA ISHINING TUZILISHI

Titul varag'i

Mundarija

Kirish

Asosiy qism boblari

Xulosa

Bibliografik ro'yxat

Ilovalar



Falsafa doktori (PhD)

Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya kirish qismi, **kamida uchta bob**, asosiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lgan shaklda rasmiylashtiriladi. Dissertatsiyaning matni **60 varaqdan** (varaqlarning oldi va orqa tomoniga matn tushiriladi) oshmasligi kerak (foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalar ko'rsatilgan hajmga kirmaydi).

Fan doktori (DSc)

Fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya kirish qismi, **kamida to'rtta bob**, asosiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lgan shaklda rasmiylashtiriladi. Dissertatsiyaning matni **100 varaqdan** (varaqlarning oldi va orqa tomoniga matn tushiriladi) oshmasligi kerak (foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalar ko'rsatilgan hajmga kirmaydi).

DISSERTATSIYANING KIRISH QISMI TUZILISHI

● Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati	➤ Tadqiqot yoʻnalishi, uning muhimligi nimada, qaysi olimlar ushbu yoʻnalishda ilashgan, mazkur mavzudagi qaysi masala yetarlicha oʻrganilmagan va boshqalar ifodalanadi.
● Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi	➤ Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mos kelishi hamda ushbu yoʻnalish dissertatsiyaning kirish qismida koʻrsatib oʻtilishi kerak.
● Dissertatsiya mavzusi boʻyicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi (fan doktori (DSc) uchun)	➤ Fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya ishida aynan ushbu mavzuga doir xorijiy ilmiy tadqiqotlarning sharhi ham keltirib oʻtilishi zarur.
● Muammoning oʻrganilganlik darajasi	➤ Ushbu qismida odatda 3 ta qismga ajratilgan holda (Sharq, Gʻarb va Oʻzbekiston) tadqiqot yoʻnalishi boʻyicha olimlarning ishlari oʻrganiladi.
● Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi	➤ Odatda har-bir dissertatsiya ishi amalga oshirilayotgan taʼlim tashkilotining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliq holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.
● Tadqiqotning maqsadi	➤ Umuman olganda, ishning maqsadi mavzuni shakllantirishga mos kelishi va uni aniqlashtirishga qaratilgan boʻlishi kerak.
● Tadqiqotning vazifalari	➤ Vazifalar esa maqsaddan kelib chiqib shakllantiriladi, lekin boblarda keltirilgan paragraflarni ifodalasa maqsadga muvofiq boʻladi.

DISSERTATSIYANING KIRISH QISMI TUZILISHI

Davomi

● Tadqiqotning obyekti



Tadqiqot o'rganayotgan kengroq hodisa, jarayon yoki tizim ko'rsatiladi. (Masalan: boshqaruv tizimi, ta'lim jarayoni, ijtimoiy guruh, texnologik yechim).

● Tadqiqotning predmeti



Tadqiqot doirasida bevosita o'rganilayotgan, aniqlashtirilayotgan, takomillashtirilayotgan jihat ifodalanishi kerak.

● Tadqiqotning usullari



Dissertatsiyada qo'llanilgan ilmiy yondashuvlar: kontent-tahlil, statistik tahlil, model yaratish, eksperiment, intervyu, sotsiologik so'rovnoma, SWOT h.k.

● Tadqiqotning ilmiy yangiligi



Dissertatsiya asosida ilgari ilm-fanda mavjud bo'lmagan yoki cheklangan holda yoritilgan ilmiy natijalar, modellar, metodlar yoki amaliy yechimlar.

● Tadqiqotning amaliy natijalari



Tadqiqotda yaratilgan metod, model, tizim, dastur yoki yechimlarning qanday sohalarida qo'llanilishi mumkinligi, amalda sinalgan holatlari.

● Tadqiqot natijalarining ishonchliligi



Natijalar qanday usullar orqali tasdiqlangani (masalan: matematik-statistik dalillar, eksperiment natijalari, ekspert xulosalari) asoslanadi.

DISSERTATSIYANING KIRISH QISMI TUZILISHI

Davomi

● Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati



Ilmiy jihatdan: yangi nazariya, model yoki konsepsiyani ilgari surganlik. Amaliy jihatdan: tizim samaradorligini oshirish, boshqaruvni optimallashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, innovatsiyalar joriy qilish imkoniyati.

● Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi



Tadqiqot natijalarini qaysi tashkilot, soha yoki korxona amaliyotida sinovdan o'tkazilgan yoki joriy etilganini hujjatlar bilan ko'rsatish.

● Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi



Resublika yoki xalqaro ilmiy-amaliy anjimanlarda tadqiqot ishiga doir ma'ruzalar qilinganligi ifodalanadi.

● Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi



Kamida 3 ta ilmiy maqola (jumladan nufuzli xorijiy ilmiy jurnallarda 1 ta maqola) OAKning dissertatsiyalarni asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan nashrlarda chop etilishi lozim.

● Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi



Dissertatsiya ishining tuzilishi, necha bob va paragrafdan iborat ekanligi hamda umumiy hajmi ko'rsatilib o'tiladi.

DISSERTATSIYA ISHINING NAZARIY QISMI

Mavzuga oid asosiy tushunchalar va kategoriyalarni aniqlashtirish

Tadqiqot mavzusi bo'yicha ilgari o'rganilgan ilmiy yondashuvlar sharhi

Nazariy model yoki asosiy g'oyalarni ishlab chiqish



**Odatda nazariy qism tadqiqot ishining
birinchi bobida ifodalanadi**

Tadqiqot asosidagi metodologik yondashuvlarni nazariy asoslash

Dissertatsiya muammosining tahliliy-nazariy asoslanishi

Umuman olgan tanlangan mavzu bo'yicha shu kinga qadar amalga oshirilgan ilmiy ishlar tahlil qilinadi

DISSERTATSIYA ISHINING METODOLOGIYASI

Dissertatsiya ishining metodologiyasi — bu ilmiy tadqiqot qanday yo‘nalish, qanday metod, qanday vosita va qanday asosda olib borilganini asoslab beruvchi bo‘lim hisoblanadi.

Tahliliy usullar:

- Kontent tahlil;
- Qiyosiy tahlil;
- Statistika tahlil;
- Trend va dinamik tahlil;
- SWOT tahlil va boshqalar.

Eksperimental metodlar:

- Tajriba sinovlar;
- Amaliy eksperiment;
- Ekspert baholash va boshqalar.

Model yaratish metodlari:

- Funktsional model;
- Strukturali modellashtirish;
- Algoritmik modellashtirish;
- Sun‘iy intellekt yordamida modellashtirish.

So‘rovnoma va empirik tadqiqotlar:

- Anketalar;
- Intervyular;
- Kuzatuvlar;
- Keys-stadi va boshqalar.

DISSERTATSIYA ISHINING XULOSASI

Dissertatsiya ishining xulosa qismi har bir bob yakunida alohida tarzda ishlab chiqilishi, shuningdek, ilmiy ishning umumiy yakunida ushbu xulosalarning integrallashgan, umumlashtirilgan shaklda taqdim etilishi zarur hisoblanadi. Bu qismda tadqiqot jarayonida erishilgan asosiy ilmiy natijalar, ilgari surilgan g'oyalar, yaratilgan modellarning amaliy samaradorligi va ularning ilm-fan taraqqiyotidagi o'рни aniq va lo'nda ifodalanadi.

Xulosa bo'limi dissertatsiya ishining mazmuniy asosini, ilmiy yangiliklar va asosiy natijalarni qisqa, tizimli va tahliliy shaklda jamlaydi. Har bir bobda olingan natijalar o'zaro bog'liq holda tahlil qilinib, umumiy tadqiqot maqsadiga qanday hissa qo'shgani tushuntiriladi. Bu esa dissertantning o'z mavzusi doirasida olib borgan ilmiy izlanishlari qanchalik asosli, tizimli va samarali bo'lganini namoyon etadi.





**E'TIBORINGIZ UCHUN
RAHMAT!**